

## Toshkent shahar statistika boshqarmasi



### Toshkent shahrida 2019 yil yanvar oyi uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining asosiy ko'rsatkichlari


#### RAQAMLAR:

- Sanoat mahsuloti hajmi **3 169,0 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **99,4 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **1 223,0 mlrd.so'mni** va o'sish sur'ati **106,9 %** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi **38,6 %** ni tashkil etdi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **73,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 3169,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 99,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 98,9%, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 102,0%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash -105,0% va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 108,0% ga o'sishi hisoblanadi.

#### 2019 yilning yanvar oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % d



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar oyida Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 99,9 mlrd.soʻmlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining 3,2 % ni tashkil etgan.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 103,5% va boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati esa 95,8 % ga oshganini kuzatish mumkin.

2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019- yil yanvarda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Oʻsish surʼati
66410,1	<p><b>Tabiiy gaz va xom neft qazib olish</b></p> 	87137,6	103,8
9290,7	<p><b>Boshqa togʻ-kon sanoati</b></p> 	11594,3	95,8




## Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

### Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

2019 yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqaradigan maxsulotlar hajmi 2656,5 mlrd.so'mni va o'tgan yilga nisbatan 98,9 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,6 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali – 21,8 %, o'rta-quyi texnologiyali – 37,1 % , quyi texnologiyali – 36,5 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvarda ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan koks va neft mahsulotlar 41,9% ga, boshqa guruhlariga kiritilmagan mashina va asbob uskunalar 21,8% ga kamaygan bo'lsa, ichimliklar ishlab chiqarish 26,7 % ga , mashina va asbob uskunalaridan tashqari tayyor metal mahsulotlari 6,8% ga, qog'oz va qog'oz mahsulotlari 6,7% ga va mebel ishlab chiqarish 5,0 % ga oshganligini kuzatamiz.

2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati	2019 yil yanvar- ishlab chiqarilgan (mln.sum)	O‘shish sur‘ati %da
242564,2	<p align="center"><b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b></p> 	291524,7	103,7
127402,6	<p align="center"><b>Ichimliklar ishlab chiqarish</b></p> 	183956,5	126,7
1696,8	<p align="center"><b>Tamaki mahsulotlari</b></p> 	1958,1	97,7
122164,5	<p align="center"><b>Tekstil mahsulotlari</b></p> 	145048,0	100,8

### Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari

65387,8



71650,6

91,5

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar

14789,5



21782,9

98,7

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 335,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 10,6 % ni ) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 105,0% ga ko'paygan.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 76,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,4 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019 yil yanvar oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ga ko'paygan.

### Iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish


Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-dekabr oyida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 1223,0 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, %



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 373,6 mlrd.so'mga etkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 30,6% , nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 790,9 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 64,7%, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 58,5 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 4,8% tashkil etdi.


### 2019 yilning yanvar oyida tumanlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng kup ulush Olmazor tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (13,9 % ulushini), Yashnobod (13,9 %), Sirg'ali (10,8 %) va Chilonzor (10,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Mirobod ( 6,0 %) tumani, Yunusobod (6,4 %) va Bektemir ( 7,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar oyida hududlarda iste'mol tovarlarni  
ishlab chiqarish hajmi (% , da)**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Yashnobod tumani (118,2%), Bektemir tumani (116,4 %) va Sergeli tumanlarida (108,6) kuzatilgan.


Eng kam o'sish sur'atlari esa Chilonzor (101,2%) va Shayxontohur tumani(102,5%).



### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 17,5 % ulushini), Mirzo Ulug'bek tumani (12,6 %), Mirobod tumani (11,0 %), Shayxontohur tumani (10,7%) va Chilonzor tumani (9,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2019 yilning yanvar oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy ( 4,6 %), Uchtepa ( 5,7 %), Bektemir ( 6,5 %), tumanlariga to'g'ri keladi.


### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 73,0 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yakkasaroy tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 94,5 %), Olmazor (91,6), Uchtepa (90,8%) va Yunusobod (87,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirzo Ulug'bek (58,5 %), Yashnobod (62,8 %) va Bektemir (63,5) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**  
**Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun ma'sul: Nishanbaeva N.  
Aloqa telefoni: (0371) 230-88-16